

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**ISLON KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

TURSUNOV SHOXJAXON MUSTAFOYEVICH

**MAHALLIY XOMASHYO DOLOMITDAN BRUSIT AJRATIB OLIH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Tursunov Shoxjaxon Mustafoyevich

Mahalliy xomashyo dolomitdan brusit ajratib olish texnologiyasini takomillashtirish.....3

Турсунов Шохжахон Мустафоевич

Совершенствование технологии извлечения брусита из местного сырья доломита.....21

Tursunov Shokhjakhon

Improving the technology for extracting brucite from local raw material dolomite.....41

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....45

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

TURSUNOV SHOXJAXON MUSTAFOYEVICH

**MAHALLIY XOMASHYO DOLOMITDAN BRUSIT AJRATIB OLIH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5029 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdtu.uz) va “ZiyoNet” axborot ta’lim tarmog‘iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna

kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

To‘rayev Zokirjon

texnika fanlari doktori, professor

Jumanova Miyasar Ortikovna

texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi **DSc03/29.08.2023.K/T.66.02** raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «27» dekabr kuni soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.:(69) 234-14-85; faks: (69) 234-14-85, e-mail: info@namdtu.uz). Namangan davlat texnika universiteti, 6-bino, 1-qavat, Ilmiy kengashning 303-xonasi.

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 97 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (69) 234-14-85.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «03» dekabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «03» dekabrda №41- raqamli reestr bayonnomasi).



O.K. Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.

O.T. Mallabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, k.f.f.d., dots.

D.Sh. Sherqo‘ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ko‘p miqdorda yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan oqilona foydalanish, ulardan keng assortimentdagi mahsulotlar tayyorlash texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshiruvchi yangi, energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ma‘lumki, dunyo aholisining ortib borishiga monand ravishda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning hajmi ham tobora ortib bormoqda. Shu sababdan, turli sohalarda ishlab chiqarishni jadallashtirish, ularni texnik va texnologik yangilash, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, magniy birikmalari (magniy gidroksidi, magniy oksidi, magniy va ammoniy sulfati, kalsiy sulfati hamda qurilish gipsleri) olishning soddalashtirilgan texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qaratilgan mavjud muammolar yechimlarini topish alohida ahamiyatga ega.

Jahonda dolomitni qayta ishlash orqali magniyli birikmalari va mineral o‘g‘itlar olishga qaratilgan ilg‘or, energiya tejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, dolomit tarkibidagi magniyni ajratib olish va uni yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ko‘rinishida qayta ishlash jarayonlari bugungi kunda kimyo va metallurgiya sanoatining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda magniy birikmalari, ayniqsa magniy gidroksidi (brusit) muhim o‘rin tutadi, chunki u qishloq xo‘jaligi o‘g‘itlari va polimerlar uchun mustahkamlovchi komponent sifatida keng qo‘llanadi. Shu bois dolomitdan magniy gidroksidi olish usullarini takomillashtirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, mahsulot sifatini oshirish, tannarxni kamaytirish hamda sanoat jarayonlariga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda bugungi kunda kimyo sanoatini rivojlantirishda tarkibida magniy tutgan xomashyolarini qayta ishlash texnologiyalarini rivojlanishi, magniyli birikmalar bilan taminlash bo‘yicha chora-tadbirlari hamda ko‘plab ilmiy-tadqiqot natijalarini amalga oshirishga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish”ga¹ qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada mahalliy xomashyo - dolomitdan import o‘rnini bosuvchi, mexanik va kimyoviy barqaror mahsulotlar olishga qaratilgan ilmiy izlanishlar katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60 son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi” farmoni va 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992 son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi PF-60 Farmoni

chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-yil 1-martdagi 91-sonli "Mineral o'g'itlar xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentini tasdiqlash haqida", 15-dekabrda 753-sonli "Kimyo sanoati uchun innovatsion kimyoviy ilmiy-ishlab chiqarish va ta'lim klasterlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ilmiy-texnik adabiyotlarida magniy gidroksid, magniy oksidi saqlovchi xomashyolarni tabiiy manbalardan ajratib olish va amaliy asoslarni yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng yoritilgan. Bu borada ilmiy izlanishlar M.Kh.Alaa, N.P.Kosupalo, Y.Ding, T.V.Bondarchuk, I.I.Smirnov, V.T.Antonov, V.V.Shipsov, O.V.Kanagin va boshqa yetakchi olimlar ilmiy ishlar olib borishgan.

O'zbekistonda karbonatli jinslarning kislotali muhitda parchalanish mexanizmlari o'rganilgan bo'lib, ularning orasida dolomitlarning ayrim kislotalar, jumladan, xlorid va nitrat kislotalari bilan reaksiyaga kirishish xususiyatlarini A.T.Dadaxodjaev, X.Ch.Mirzakulov, Sh.S.Namazov, M.Y.Pozin, A.M.Reymov, S.M.Tadjiyev, M.E.Axmedov, D.A.Ergashev, M.Y.Tojimatova, O.S.Bobokulova va boshqa olimlar tomonidan ham yoritilgan. Dolomitni sulfat kislota bilan parchalash orqali magniy gidroksid va magniy oksidi olishning ilmiy va texnologik aspektlari etarlicha o'rganilmagan, nordon kislota aylanma eritmalarni qayta ishlash haqida ma'lumotlar yo'q.

Har bir tabiiy mineral resurs o'ziga xos tarkib va xususiyatlarga ega bo'lib, ular bir-biridan keskin farqlanadi. Shu sababli, har bir mineral xomashyoni qayta ishlashda individual ilmiy va texnologik yondashuv hamda iqtisodiy jihatdan samarali usullarni aniqlash zarur. Jahonda mavjud bo'lgan texnologiyalar dolomitni qayta ishlash uchun mos kelmaydi, chunki uning tarkibi va asosiy komponentlarning miqdori boshqa minerallardan sezilarli darajada farq qiladi.

Mahalliy xomashyolar asosida kimyoviy birikmalar olish texnologiyalarini har tomonlama o'rganish orqali biz bu boradagi vazifalarga muvofiq ular asosida xususiyatlari oldindan belgilangan mutlaqo yangi moddalar va materiallarni yaratish, zamonaviy ishlab chiqarish talablariga javob beradigan yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqish hamda mavjudlarini takomillashtirish ustida ish olib bormoqdamiz. Dehqonobod konlaridagi dolomitni sulfat kislotalarda parchalash orqali magniy oksid va magniy gidroksid olishning laboratoriyada ajratib olish texnologiyasi keltirilgan va olingan xomashyolarni fizik kimyoviy xossalari tadqiq etilgan. Tadqiqot mavzusi O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarining real ehtiyojlari, mamlakatimizda hayotga tatbiq etilayotgan resurs tejash va import o'rnini bosish siyosati hisobga olingan holda shakllantirilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2022-2023 yillarga mo'ljallangan UK-2023/09-1 "Dehqonobod dolomitidan laboratoriya sharoitida chiqindisiz resurstejamkor kompleksli texnologiya orqali brusit ajratib olish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mahalliy xomashyo Dehqonobod dolomitini sulfat kislota bilan qayta ishlash orqali brusit hamda gips ajratib olishning resurstejamkor texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Dehqonobod dolomitidan brusit ajratib olish va uning tarkibini o'rganish uchun tadqiqot objekti va metodlarini kompleks tahlil qilish;

tabiiy dolomitni sulfat kislota bilan parchalash jarayoning maqbul texnologik parametrlarini aniqlash;

sulfat kislotali eritmani ammiak bilan neytrallashtirish jarayonida magniy gidroksidning cho'kishi va o'tish darajasiga pH muhitning ta'sirini o'rganish;

Dehqonobod dolomitini sulfat kislota bilan qayta ishlash natijasida brusit olish jarayonida gidromodulni tanlash hamda vaqt, harorat va konsentratsiya ta'sirini o'rganish;

Dehqonobod dolomitidan magniy oksid, gips, hamda ammoniy sulfat olish jarayonining resurstejamkor chiqindisiz kompleks texnologiyasini ishlab chiqish;

Dehqonobod dolomitidan olingan brusitni respublikamizda ishlab chiqariladigan mineral o'g'it ammoniy nitratning gigroskopikligini kamaytiruvchi modda sifatida samarali qo'llash.

Tadqiqotning objekti sifatida Dehqonobod dolomiti, sulfat kislota, ammiak, brusit, magniy gidroksid, magniy oksid, gips namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti Dehqonobod dolomitini sulfat kislotali parchalash, neytrallashtirish asosida cho'ktirish orqali brusit olish jarayonining maqbul parametrlari va sharoitlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda yuqori quvvatli energodispersion rentgenofluorensent spektrofotometr, IQ-spektroskopik, rentgenografik, elektron mikroskopik, differensial termik tahlil kabi zamonaviy nazariy va eksperimental tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tabiiy Dehqonobod dolomitidan magniy oksid (MgO) olishning laboratoriya sharoitida asoslangan texnologik usuli aniqlangan;

Dehqonobod dolomitni H_2SO_4 bilan parchalash jarayonining maqbul texnologik parametrlari, kislota konsentratsiyasi 30%, stexiometrik meyori 100%, dolomitni parchalanish harorati va davomiyligi mos ravishda $50^{\circ}C$ va 60 daqiqaga teng ekanligi va bunda magniyni eritmaga o'tish samaradorligi 99,62-99,97% bo'lishi aniqlangan;

magniy sulfat eritmasidan magniy gidroksidni cho'ktirishning ammiakli neytrallashtirish jarayoni chuqur tahlil qilinib, $pH = 11 - 11,5$, harorat $25 - 30^{\circ}C$ bo'lganda, 100% cho'kish samaradorligi isbotlandi;

magniy oksid, gips hamda ammoniy sulfat olishning maqbul tarkibi XRD-rentgenafazali, SEM-skanerlovchi elektron mikroskop, IQ-spektroskopik, TGA-Termogravimetrik va fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida aniqlangan;

Dehqonobod dolomitini 30% li sulfat kislota bilan 10:1 gidromodulda parchalashning eng optimal sharoiti ekanligi hamda bunda toza brusit (MgO -82,0%) olish isbotlangan;

Dehqonobod dolomitidan brusit olishdan tashqari magniy oksid (MgO), gips ($\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) va ammoniy sulfat ($(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$) olishning resurstejamkor va chiqindisiz kompleks texnologiyasi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy xomashyo tabiiy dolomitdan brusit, qurilish materiallarida keng qo'llaniladigan gips, ammiakli o'g'it ajratib olish takomillashtirilgan texnologiyasi aniqlangan;

tabiiy dolomitdan brusit, gips va ammoniy sulfat olish jarayonida bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish bilan asoslangan, kompleks hamda samarali texnologiyasi ishlab chiqilgan;

tabiiy dolomitni sulfat kislota bilan parchalab brusit olishning takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Kimyoviy va zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil (rentgenografik, IQ-spektroskopik, termogravimetrik) natijalari laboratoriya tajribalari va eksperimental va sanoat sinovlari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Dehqonobod dolomitidan brusit olish jarayonida hosil bo'ladigan gips va suyuq o'g'it olishning chiqindisiz kompleks texnologiyasi ishlab chiqildi. Shuningdek, dolomitni sulfat kislota yordamida parchalanish jarayoni orqali hosil bo'lgan eritmani ammiak bilan neytrallash yo'li bilan magniy gidroksid olishning ilmiy asoslari o'rganilib, ammoniy sulfat olishning energiyatejamkor texnologiyalari yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa Dehqonobod dolomitlaridan brusit, gips olish va hosil bo'lgan eritmadan ammoniy sulfat suyuq o'g'itini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Bu esa dolomit xomashyosini kompleks qayta ishlash orqali mamlakatimiz ehtiyojlari uchun magniy birikmalari ishlab chiqarish hamda sho'rlangan tuproqlar uchun samarali bo'lgan suyuq o'g'it yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy xomashyo Dehqonobod dolomitini sulfat kislota bilan qayta ishlash orqali brusit hamda gips ajratib olishning ilmiy asoslarini o'rganish orqali chiqindisiz, resurstejamkor, kompleksli texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Dehqonobod dolomitidan brusit ajratib olishning takomillashtirilgan texnologiyasi "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ning "2025-2026 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yhati"ga kiritilgan ("Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ning 2025 yil 26 iyundagi №2232/052 – sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ajratib olingan brusitning magniy oksidi tarkibi 82% bo'lishi hamda olingan brusit reagenti mineral o'g'itlarning gigroskopik xossalarini yaxshilash imkonini bergan;

mahalliy xomashyo dolomitdan brusit olish texnologiyasining takomillashtirilgan qurilmasi “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning “2025-2026 yillarda amaliyotga joriy etish bo’yicha istiqbolli ishlanmalar ro’yhati”ga kiritilgan (“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ ning 2025-yil 26-iyundagi №2232/052 – sonli ma’lumotnomasi). Natijada, mahalliy xomashyo tabiiy dolomitdan brusit, qurilish materiallarida keng qo’llaniladigan gips, ammiakli o’g’it ajratib olish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta Respublika miqiyosidagi va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan hamda muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, dissertatsiyaning (PhD) asosiy ilmiy natijalari 6 ta ilmiy maqola, shulardan O’zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan hamda 1 ta patent nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to’rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, shartli belgi va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning ob’ekti va mavzusi tavsiflangan, tadqiqotning O’zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga muvofiqligi ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dolomitdan magniy gidroksidni ishlab chiqarish jarayonining hozirgi zamon holati”** deb nomlangan birinchi bobda adabiyotlar sharhi keltirilgan bo’lib, unda dolomit xomashyo resurslarining tavsifi, uning manbalari, hozirgi holati va kelajakdagi istiqbollari hamda kislotalar bilan qayta ishlash usullari haqida ma’lumotlar yoritilgan. Shuningdek, magniy birikmalari hamda suyuq o’g’itlar olish imkoniyatlari ilmiy-texnik va patent adabiyotlari asosida tahlil qilingan. Fizik-kimyoviy sistemalar tadqiqi amalga oshirilgan bo’lib, magniy oksidi, magniy gidroksidi hamda magnezial birikmalarga oid ilmiy to’plamlar va patent materiallari ko’rib chiqilgan. Adabiyotlar tahlili asosida ushbu tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob’yekti va usullari. Asosiy xomashyo reagentlari va yordamchi materiyallarning tavsiflari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob’ektlari va ularning DST talablariga muvofiq tavsifi, tajribalarni bajarish tartiblari va zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari hamda qo’llanilgan asboblari va uskunalari to’g’risidagi ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiq qilish uchun Dehqonobod hududidagi dolomit konidan ikki xil tarkibga ega bo’lgan namuna olingan (mass. %): CaO – 34,2; MgO – 18,3; CO₂ – 43,85; e.q. – 0,57 va CaO – 36,87; MgO – 18,75; CO₂ – 42,52; e.q. – 0,68.

Tadqiqalar uchun Dehqonobod hududidagi dolomit konidan ikki xil tarkibga ega bo'lgan namuna olingan (1-jadval). Jadvalda 3 ta namuna berilgan


1-jadval

Dehqonobod dolomit xomashyosining kimyoviy tarkibi

№	CaO	MgO	SiO₂	Fe₂O₃	Al₂O₃	SO₃	CO₂	Boshqa
№ 1	36,57	14,45	0,941	0,220	0,375	0,90	44,35	1,194
№ 2	37,88	13,75	0,865	0,213	0,410	0,83	43,75	1,875
№ 3	34,2	20,3	0,816	0,055	0,414	0,149	43,12	1,861

Dissertatsiyaning “**Sulfat kislota ishtirokida dolomitning parchalanish jarayonini o‘rganish**” deb nomlangan uchinchi bobida sulfat kislota ishtirokida dolomitning parchalanishi va ko‘piklanish jarayonlari, dolomitni parchalanish kinetikasini o‘rganish, dolomit, brusit, magniy gidroksid va gipsning skanerlovchi elektron mikroskop tahlillari, sulfat kislotasi ekstraktining ammoniyashtirish darajasining magniy gidroksid unumiga ta’siri, ammoniyashtirilgan va aylanma suyuqliklarning reologik xususiyatlarini o‘rganish, dolomitdan ajratib olingan magniy gidroksidining fizik-kimyoviy xossalari, mahalliy xomashyo dolomitdan olingan magniy gidroksididan polietilen uchun yong‘inga qarshi vosita sifatida foydalanish, dolomitning rentgenofluoressent tahlili va IQ spektri natijalari, magniy gidroksidning termik barqarorligini tadqiq qilish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar avvalida Dehqonobod dolomitining tarkibida CO₂ miqdori ko‘p bo‘lganligi sababli uning sulfat kislota bilan parchalanish o‘rganildi. Bunda jarayonining davomiyligi va ko‘pik hosil bo‘lish jarayonida aralashtirgichlarning aylanish tezligi ta’siri o‘rganildi. Tadqiqotlar 50°C haroratda, mexanik aralashtirgich bilan jihozlangan silindrsimon shisha reaktorda 30% li sulfat kislotasi bilan bunda dolomitni sulfat kislotasi bilan parchalashdagi me’yori 100 % da olib borilgan.


Aralashtirgichning tezligi 750 ayl/daq. – dan 1000 ayl/daq. – gacha oshirilganda ko‘piklanish karraligi tezda kamayadi, maksimal karraligi esa 15-25 soniyadan keyin kuzatiladi. Aralashtirgichlarning aylanishlar tezligi oshgan sari ko‘piklanish karraligi maksimal darajada 1,269 martaga kamaytiradi, vaqt esa 10 soniya sarflanadi. Bunda ko‘pikning barqarorligi 60 soniyadan oshmaydi. Ko‘pik hosil bo‘lishini kamaytirishning nisbatan samarali usullaridan biritserkuliotsion (30-50%) quyqa tarkibiga dolomit kiritiladi, u sulfat kislota ta’sirida parchalanadi. Dolomitni 100% stexiometrik meyorda konsentratsiyasi 20, 30, 40, 50 va 60% li sulfat kislotasi bilan parchalash jarayonining kinetik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun jarayon davomiyligi va haroratini ta’siri o‘rganilgan. Olib borilgan tajribalar 20, 30, 40, 50 va 60 °C haroratlarda ushlab turildi. Dolomitning parchalanish darajasi suyuq fazadagi kalsiy va magniy oksidlarining miqdorlari orqali aniqlangan. Kalsit va magnezitda parchalanadi har xil haroratlarda, bosqichma-bosqich parchalanish selektiv kalsinlanishga imkon beradi. Kimyoviy boyitish usullari, magniy tuz sifatida eritiladi, erimaydigan aralashmalar tomonidan chiqariladi qattiq-suyuqlikni ajratish usullari va tozalangan magnesiya termal yo'l bilan qayta tiklanadi.



1-rasm. Dehqonobod dolomitining rentgenofluoressent tahlili

Ushbu rentgenofluoressent spektrda turli elementlarning x-nur chiziqlari va ularning intensivligi ko'rsatilgan. Dolomit odatda kalsiy (Ca), magniy (Mg), kislorod (O) va uglerod (C) elementlarini o'z ichiga oladi. Ushbu spektrda kalsiy va magniy uchun yuqori intensivlikdagi chiziqlar mavjudligi ehtimolini ko'rsatadi va bu dolomitga xos ekanligini ko'rsatadi. Quyidagi belgilar ham bu spektrning XRF texnologiyalari yordamida olinganini ko'rsatadi: Bir nechta turli energiya diapazonlari bo'yicha olingan kuchaytirishlar mavjud, masalan, "X 200" va "X 2000", bu esa keng energiya diapazonida tahlil qilinganidan darak beradi.

Infraqizil spektroskopiya (FTIR – Fourier Transform Infrared Spectroscopy Fur'e o'zgaruvchan infraqizil spektroskopiya) moddalar tarkibini o'rganish uchun ishlatiladigan asosiy analitik usullardan biri bo'lib, molekularning tebranish chastotalariga asoslangan yutilish spektrini aniqlaydi. Ushbu grafik FTIR spektri bo'lib, unda dolomit, magniy gidroksid yoki boshqa kimyoviy birikmalarning funksional guruhlar haqida ma'lumot beriladi. $1500-1300\text{ cm}^{-1}$: Bu hududda karbonat guruhlar (CO_3^{2-}) tebranishlari aniqlanadi, bu esa dolomit yoki kaltsiy/magniy karbonatlar mavjudligini bildiradi.




2-rasm. Ajratib olingan brusit reagentining rentgenofluoressent tahlili

Yuqori quvvatli energiodispersion rentgenofluoressent spektrofotometr – Yaponiya, Rigaku NEX CG EDXRF Analyzer with Polarization in set - 9022 19 0000 priborida tahlil qilindi.

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibiki, dolomitni sulfat kislota bilan parchalash orqali olingan brusit asosan magniy oksididan iborat. Magniy oksidining miqdori 22,6% va oltingugurt olti oksidi 20,0% dan kelib chiqib hisoblash orqali olinadigan bo'lsa, olingan maxsulot magniy gidroksid va magniy sulfat tuzi aralashmasi ekanligi ko'rinib turibti. Ya'ni magniy sulfat tarkibida magniy oksidi 33,3% va oltingugurt oksidi 66,7%ligi uchun, 20,0% SO_3 ga 10,0% MgO to'g'ri keladi. 12,6% MgO brusit tarkibida hosil bo'lgan.

Dolomitni sulfat kislota bilan parchalash orqali olingan brusit asosan magniy oksididan iborat. Magniy oksidining miqdori 82,0% (60% bo'lishi kerak) va oltingugurt (VI) oksidi 2,20% dan kelib chiqib hisoblash orqali olinadigan bo'lsa, olingan mahsulot magniy gidroksid va magniy sulfat tuzi aralashmasi ekanligi ko'rinib turibti. Ya'ni magniy sulfat tarkibida magniy oksidi 82,0% va oltingugurt oksidi 2,2% xlor esa 0,021% va mis oksidi 0,015% hosil bo'lgan.




3-rasm. Magniy gidroksidning rentgen-fotoelektron spektroskopiyasi (RFS) kukun namunalari o'ranilgan natijalari

3-rasmda $Mg(OH)_2$ ning rentgen nurlari diffraksiyasi ko'rsatilgan. X-ray naqshlari kristall $Mg(OH)_2$ rentgen nurlanishining diffraksiya naqshiga mos keladi. Bu yuqori intensivlikning keng cho'qqilarini ko'rsatadi $Mg(OH)_2$ kristallitlarining maksimal cho'qqisi kengayish qaysi cho'qqilar zarrachalarning kichik ekanligini ko'rsatadi.


Magniy gidroksidining kalsinlanish haroratini aniqlash uchun derivatogramma olingan bo'lib, undan magniy oksidini olish uchun magniy gidroksidini kamida $410^\circ C$ haroratda kalsiylash kerakligini ko'rish mumkin (4-rasm). Jarayonning boshlanishi $315,3^\circ C$, oxiri $410^\circ C$. Maksimal namlikni yo'qotish tezligi daqiqada 3% ni tashkil qiladi. Berilgan parchalanish tezligida 30,875% namlikni chiqarish uchun kamida 11 daqiqa jarayon talab qilinadi.

Kuydirish haroratining 1 soat davomida $400^\circ C$ dan $800^\circ C$ gacha ko'tarilishi bilan magniy oksidi tarkibi magniy gidroksididagi 56,62% dan $800^\circ C$ da 93,10% gacha oshadi.



4-rasm. Magniy gidroksid derivatogrammasi

Mg(OH)₂ dan MgO hosil bo'lish darajasi 95,85% ni tashkil qiladi. 500°C haroratda kuydirish jarayonining davomiyligini oshirish magniy oksidi tarkibini 1 soat ichida 82,86% gacha va 3 soat ichida 84,60% gacha oshirishga yordam beradi. Mg(OH)₂ dan MgO hosil bo'lish darajasi 95,85% ni tashkil qiladi. Magniy oksidini olish uchun optimal sharoitlar kamida 2 soat kuydirish vaqti bilan 700-800°C haroratdir.



5-rasm. Kuydirish haroratining magniy oksidi tarkibiga (a) va jarayon vaqtining magniy oksidi tarkibiga ta'siri (b)

Dehqonobod konidagi dolomitning parchalanish jarayonini ilmiy asoslash uchun kinetik xarakterga ega ma'lumotlar kerak. Kinetik ma'lumotlarni aniqlash uchun dolomit 20, 30, 40, 50 va 60 % li sulfat kislota bilan 100% stexiometriyada dolomitning parchalanish harorati va davomiyligi ta'siri o'rganildi. Eksperimental haroratlari 20, 30, 40, 50 va 60 °C darajasida mexanik aralashtirgich va namuna olish joyi bilan jihozlangan termostatik boshqariladigan shisha reaktorda saqlangan. Dolomitning parchalanish darajasi suyuq fazadagi kalsiy va magniy oksidlarining miqdori bilan aniqlandi. Olingan ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sulfat kislota konsentratsiyasining pasayishi, haroratning oshishi va parchalanish jarayonining davomiyligining oshishi dolomitning parchalanish darajasining oshishiga yordam beradi.

2-jadval

Dolomitning sulfat kislota bilan 100% parchalanish darajasiga konsentratsiya, harorat va jarayon davomiyligining ta'siri

№	Vaqt, daq.	Parchalanish darajasi, %				
		20°C	30°C	40°C	50°C	60°C
Kislota konsentratsiyasi 20%						
1	5	75,5	81,2	87,2	95,5	92,3
2	10	83,2	87,8	91,5	94,4	93,2
3	15	86,9	91,6	93,6	96,5	94,7
4	20	89,7	93,6	95,7	97,7	96,5
5	25	93,9	94,8	96,6	97,9	98,1
6	30	94,8	95,9	97,7	98,5	98,6
7	40	95,8	96,7	98,5	98,9	98,9

8	50	96,7	97,5	98,9	99,5	99,2
9	60	97,5	98,8	99,2	99,5	99,7
Kislota konsentratsiyasi 30%						
10	5	74,3	80,4	86,1	90,9	91,5
11	10	82,2	88,2	91,9	94,1	94,4
12	15	85,7	90,6	93,8	95,4	95,8
13	20	89,5	93,6	96,3	97,1	97,5
14	25	92,6	95,9	97,3	97,6	98,1
15	30	93,7	96,7	97,8	98,1	98,6
16	40	94,9	97,4	98,3	98,6	98,8
17	50	95,5	97,8	98,8	98,9	99,0
18	60	95,6	98,3	98,9	99,7	99,1
Kislota konsentratsiyasi 40%						
19	5	71,5	77,5	81,2	81,5	87,6
20	10	77,4	84,8	88,7	89,8	90,9
21	15	81,7	88,7	91,9	92,8	93,4
22	20	84,3	91,4	94,1	95,2	95,3
23	25	86,9	93,5	95,7	96,5	96,8
24	30	89,1	94,3	96,1	96,7	97,6
25	40	90,4	95,8	97,3	97,5	98,2
26	50	91,3	96,3	97,7	98,	98,5
27	60	91,8	97,5	98,6	98,3	98,7

Dolomitning asosiy qismi 40°C haroratda 10 daqiqada parchalanadi. Dolomit 20% li sulfat kislota bilan parchalanganda 5 daqiqadan keyin parchalanish darajasi 87,2%, 10 daqiqadan keyin 91,5%, 30 daqiqadan keyin 97,7% ni tashkil qiladi. Dolomitning 30% sulfat kislota bilan 50°C haroratda parchalanishi bilan bu ko'rsatkichlar 90,9 va 99,7% gacha boradi, kislota konsentratsiyasi 40% li, 50°C haroratda bo'lganda 81,5% dan 98,3% gacha boradi. Shunday qilib, dolomitning sulfat kislota bilan parchalanishining olingan kinetik xarakteristikalari asosida jarayonni amalga oshirish uchun maqbul shart-sharoitlar belgilandi: sulfat kislota konsentratsiyasi 30%, harorat 40-50°C, jarayonning davomiyligi 50-60 daqiqadan ortiq emas. Bunda keyingi tadqiqotlarda dolomitning parchalanish jarayoniga sulfat kislota bilan parchalanishi bo'yicha tadqiqotlar 30% li sulfat kislota bilan, 50°C haroratda va jarayon davomiyligi 50-60 daqiqa davom etgan. Magniy oksidi miqdori 1,719-0,181%, kalsiy oksidi 38,05-40,80%. Magniy va kalsiy birikmalarining yaxshi eruvchanligi bilan temir va alyuminiy birikmalari sulfat kislota yomon eriydi. Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 50°C haroratda 30% sulfat kislota

maqbul me'yori va parchalanish jarayonining 60 daqiqa davom etishi stexiometrik talabning 100% ni tashkil qiladi.

Haroratning 20 dan 60°C gacha ko'tarilishi va parchalanish jarayonining davomiyligi 10 dan 60 daqiqagacha, barcha dolomit komponentlarining tarkibi kamayadi.

Jarayon vaqtini 10 dan 60 daqiqagacha oshirish tiklanishni 20°C da 3,28% ga, 40°C da 2,94% ga va 60°C da 2,64% ga oshiradi. Jarayonning davomiyligi temir va alyuminiy birikmalarini eritmaga olish darajasiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Jarayonning davomiyligini 20°C haroratda 10 dan 60 daqiqagacha oshirish temir oksidlarini olish darajasini 21,78% dan 52,41% gacha, alyuminiy oksidlarini 68,69 dan 92,18% gacha oshiradi. Haroratni 20 dan 40 va 60°C ga oshirish tiklanishni mos ravishda 21,78-52,41% dan 29,91-57,38% va 30,61-57,80% gacha oshiradi.



Dolomitning 30% li sulfat kislota bilan parchalanish haroratini 110% tezlikda 20 dan 60°C gacha va jarayonning davomiyligi 30 daqiqaga o'zgartirish suyuqlik fazasining kimyoviy tarkibiga ta'sir qilmaydi (3-jadval).

3-jadval

Dolomitning 30% sulfat kislota bilan parchalanish haroratining suyuq fazaning kimyoviy tarkibiga ta'siri

№	Harorat, °C	Suyuq fazaning kimyoviy tarkibi, og'ir. %			
		CaO	MgO	Fe ₂ O ₃	Al ₂ O ₃
1	20	9,02	3,32	0,02	0,07
2	30	9,03	3,32	0,02	0,07
3	40	9,04	3,32	0,021	0,07
4	50	9,07	3,32	0,021	0,07
5	60	9,09	3,31	0,02	0,07

Keyigini tadqiqotlarda dolomit parchalanishida hosil bo'lgan sulfat kislotali ekstraktidan erimaydigan qoldiqni ajratish jarayonini o'rganildi. Dolomitning sulfat kislota bilan parchalanishidan erimaydigan qoldiqlar kiruvchi komponentlar bo'lib, quvurlar, uskunalar va granulyatorlarning tiqilib qolishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tadqiqotning navbatdagi bosqichi dolomitlarning sulfat kislotali parchalanish mahsulotlarini cho'ktirish va filtrlash yo'li bilan aniqlashtirish jarayonlarini o'rganish bo'ldi. 6-rasmda sulfat kislota eritmalaridan dolomitning yirik zarrachalarini cho'ktirish haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, parchalanmagan dolomitning katta zarralari ancha tez cho'kadi va 3 daqiqadan so'ng cho'kish darajasi 100% ni tashkil qiladi. 100 soniyadan so'ng 98% o'rnatish darajasiga erishiladi. Texnologik sxema va asbob-uskunalarini tanlash, shuningdek, azotli-kalsiyli o'g'itlar ishlab chiqarish uchun mavjud uskunalarning yaroqliligini aniqlash uchun hosil bo'lgan parchalanayotgan aralashma, eritmalar va suspenziyalarning reologik xususiyatlarini bilish kerak. Bundan tashqari, bu ko'rsatkich sulfat kislotalaning barcha ishlatilgan konsentrasiyalari uchun deyarli o'zgarmasdir. Sulfat kislota konsentratsiyasi ortishi bilan zichlik ortadi. O'rtacha sulfat kislota konsentratsiyasining 10% ga oshishi bilan zichlik o'rtacha 8,45 (6,81)% ga oshadi (6-rasm). Shunday qilib, tindirilgan sulfat kislota ekstraktining reologik xususiyatlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ular juda yaxshi suyuqlikka ega va ularni quvurlar orqali pompalash uchun maxsus jihozlar kerak emas.




a)

b)

6-rasm. Jarayon davomiyligining dag'al dolomit zarrachalarining cho'kish darajasiga (a) va dolomitni sulfat kislotali parchalash mahsulotlarini tindirish darajasiga jarayon davomiyligining ta'siri (b).

Keyingi bosqichda dolomit, brusit, magniy gidroksid va gipsning skanerlovchi elektron mikroskop tahlili o'rganildi. Ushbu tahlil energiya dispersiyali rentgen spektroskopiyasi usuli yordamida olingan bo'lib, namunaning kimyoviy tarkibi haqida ma'lumot beradi. Skaner elektron mikroskopiya tasviri namunadagi zarrachalarning morfologiyasi va yuzasining tuzilishini ko'rsatadi.

Optik mikroskoplar bilan solishtirganda yuqori fazoviy o'lchamlari va maydon chuqurligi, shuningdek, namuna yuzasini elektron nur bilan nurlantirishda hosil bo'lgan nurlanish spektrini ro'yxatga olish asosida kimyoviy tahlil qilish qobiliyati bilan ajralib turadi. Skanerlovchi elektron mikroskop yordamida dolomit, brusit, gips, magniy oksidining SEM dagi tasvirini va element tahlilini o'rganildi. Skanerlovchi elektron mikroskop yordamida brusitning SEM dagi tasvirini va element tahlilini o'rganishdan natijalari 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Brusitning SEM tasviri va element tahlili.

Dissertatsiyaning “**Dolomitdan magniy gidroksid olish texnologiyasi va texnik - iqtisodiy samaradorligi**” deb nomlangan to'rtinchi bobida brusit olishning texnologik sxemasi, uni olish jarayonining moddiy balansi va brusit ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy samaradorligi hamda brusit hosil bo'lish jarayoni uchun matematik modeli bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Toshkent davlat texnika universitetida, Dehqonobod konidan olingan mahalliy dolomitdan brusit ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqilgan. “Navoiyazot” AJ ning 23-sexida brusit qo'shimchali ammiakli selitra ishlab chiqarish uchun

maydalangan brusit ishlatiladi. Sinov natijalari 4-jadvalda ko'rsatilgan. Taqqoslash uchun jadvalda TDTU 1517-001-59074732-05 bo'yicha maydalangan brusit me'yorlari va "Agromag" markasidagi brusit tahlili natijalari ham ko'rsatilgan.

4-jadval

Magneziya xom ashyosining nitrat kislota ekstraktini tayyorlashga yaroqliligini o'rganish natijalari

Ko'rsatkichlar nomi	TU 1517-001-59074732-05 ga muvofiq maydalangan brusit uchun normalar (1-5 aylanishlar bilan)	Tahlil natijalari	
		Magniy gidroksid TDTU	Brusit "Agromag"
Tashqi ko'rinish	-	Ko'rinadigan aralashmalarsiz oq kukun	Ko'rinadigan aralashmalarsiz oq kukun
Qizdirishdagi yo'qotishlarning massa ulushi, %	-	29,56	30,40
shu jumladan	-	4,19	2,10
-CO ₂	0,5 dan ortiq emas	4,19	0,26
- gigroskopik H ₂ O			
Massa ulushi, % -SiO ₂	-	0,66	4,83
- temir oksidi miqdori (Fe ₂ O ₃) va alyuminiy (Al ₂ O ₃),% shu jumladan	-	1,18	1,29
	0,5 dan ortiq emas	0,13	0,21
-CaO	0,4 dan ortiq emas	1,25	2,51
-MgO	60,0 dan ortiq	68,51	60,06
-SO ₄ ²⁻	-	1,39	yo'q
-Cl ⁻	-	0,008	0,01
Zarracha kattaligi bo'lgan fraksiyalarning massa ulushi:	Elakdagi qoldiq, maksimal fraksiyadagi o'leham, 18% dan ko'p emas		
0,2 mm dan katta, %		52,81	-
0,16 dan 0,2 mm gacha, %		29,9	
		17,28	
		0,01	
Nitrat kislota bilan parchalanish harorati, °C	-	70°C	70°C

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, filtrlash ham, sentrifugalash ham magniy gidroksid cho'kmasini ajratish uchun juda maqbul usullardir. Optimal texnologik parametrlarda olingan magniy gidroksid 100-110°C haroratda doimiy og'irlikda quritilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar Dehqonobod konidagi dolomitni sulfat kislota parchalash yo'li bilan magniy gidroksidiga qayta ishlash imkoniyatini ko'rsatdi. Brusitning 1 tonnasini ishlab chiqarish uchun unumini hisobga olingan holda xomashyolarni tannarxi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

1 tonna Brusit ishlab chiqarish uchun xomashyolar narxi

№	Xom ashyolar	O'lehov birligi	1t mahsulot olish uchun sarf	Xom ashyo narxi, so'm	Jami, summa, so'm
1	Dolomit	kg	1200	1400	720000

2	Sulfat kislota	kg	1000	1100	1100000
3	Ammiak 25%li	kg	650	4200	2730000
4	Suv	kg	3000	100	300000
Jami					4850000

Yuqorida keltirilgan jadvaldan shu narsa ma'lum bo'ladiki, 1t brusit ishlab chiqarish uchun 4850000 so'm xomashyo uchun sarflanar ekan.

Brusit olish va ishlab chiqarishga joriy qilish bilan uning o'ziga xos umumiy iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqilgan. 6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1 tonna brusit ishlab chiqarish uchun 5877000 so'm miqdorida xomashyo sarflanadi.

6-jadval

1 tonna Brusit ishlab chiqarish narxlari tarkibi

Nomi	Narxi, so'm
Ish haqi,so'm / tonna	300 000
Yagona ijtimoiy to'lov 15%	45 000
Xomashyolar	4850000
Qo'shimcha xarajatlar	50 000
Kutilmagan xarajatlar	50 000
Foyda 10%	485000
QQS 12%	582000
Jami:	5877000

Tadqiqotlarimiz natijasida olingan brusit tannarxini bugungi kunda yurtimizga import qilinayotgan shu turdagi brusit tannarxi bilan solishtiramiz (6-jadval), 1 kg brusit chiqarilishida 5877000 so'm, 1 kg da 700 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.


Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, brusitdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi brusit qo'shimchaning raqabatbardoshligi va import qilinadigan materiallarning o'rnini bosish imkoniyatiga ega(7-jadval).

7-jadval


Chet eldan eksport qilinadigan Brusitning narxi

No	Nomi	O'lchov qiymati	Chetdan import qilinib, sotilayotgan bozor narxi, so'm	Farq, So'm
1	Brusit "Agromag"	kg	65000	7000

Dissertatsiya asosida brusit hosil bo'lish jarayoni uchun matematik model ishlab chiqildi. Ushbu model pH, ajralgan issiqlik, reaksiya tezligi, reaksiya harorati, sulfat kislota konsentratsiyasi va dolomit massasi kabi omillarni hisobga oladi.




8-rasm. Brusit hosil bo'lishida dolomit(a) va ajralgan CO2 miqdori(b).



9-rasm. Brusit hosil bo'lishiga haroratning ta'siri va brusit hosil bo'lishiga pH darajasining ta'siri

Magniy gidroksid olish jarayoni texnologik jihatdan bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri mahsulot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi (10-rasm). Birinchi bosqichda 2-reaktorga zarur miqdorda maydalangan dolomit kukuni yuboriladi. Reaktorga ma'lum konsentratsiyadagi sulfat kislota eritmasi (H_2SO_4) qo'shilib, aralashtirish jarayoni olib boriladi. Ushbu bosqichda dolomit kislota bilan reaksiyaga kirishib, magniy va kalsiyning sulfatlari hosil bo'ladi, natijada magniy sulfatli eritma va erimaydigan qoldiq ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$) aralashmasi vujudga keladi. Keyingi bosqichda hosil bo'lgan suspensiya (dolomit suyuqlamasi) 3-reaktorga uzatiladi. Bu yerda magniy gidroksidni olish uchun filtratsiya jarayoni o'tkaziladi. Filtrlash natijasida tindirilgan sulfat kislota ekstrakti va erimaydigan qoldiq bir-biridan ajratiladi. Tindirilgan eritma ammiak eritmasi bilan neytrallanadi, bu jarayonda magniy gidroksid ($Mg(OH)_2$) cho'kma holida hosil bo'ladi. Neytrallash jarayoni davomida reaksiya issiqlik ajratishi sababli harorat ko'tariladi, shu bois ikki asosiy parametr – bo'tqa harorati va sulfat kislota me'yori ning eritma va filtrlash tezligiga ta'siri tadqiq etildi. O'tkazilgan tajribalarda dolomitni parchalash uchun 30% li sulfat kislota qo'llanildi, filtrlashdan oldingi bo'tqa pH qiymati 11 atrofida saqlanib, bu magniy gidroksidning to'liq cho'kishini ta'minladi. Natijada, magniy sulfat eritmasidan toza va yuqori sifatli brusit ($Mg(OH)_2$) ajratib olish imkoniyati yaratildi.



10-rasm. Dolomitdan brusit ishlab chiqarishning texnologik sxemasi.
 1,3,10,12-bunker, 2,4,11,13,18-meyorlagich, 5,14-aralashtirgichli reaktor, 6,9,15-maxsus nasos, 7,16-filt, 8,17-maxsus idishlar, 19-barabanli quritgich.

Taklif etilayotgan usulning mohiyati shundan iboratki, xomashyo asosan kalsiy va magniy karbonatlaridan tashkil topgan tabiiy xomashyo dolomit 20-30 % li konsentratsiyali sulfat kislotada eritiladi. Olingan eritma erimagan qoldiqdan ajratiladi va unga suyuq ammiak qo'shilishi bilan magniy gidroksid cho'kmaga tushadi.

XULOSA

1. Dolomitni sulfat kislotasi bilan parchalash jarayonlari o'rganilib, jarayonning optimal texnologik parametrlari aniqlandi: bunda sulfat kislotasi konsentratsiyasi 30%, stexiometrik meyor 100%, dolomitni parchalashdagi harorat 50°C va jarayon davomiyligi 60 daqiqa bo'lib, magniyni eritmaga o'tish darajasi 99,62-99,97% ni tashkil etgan.

2. Texnologik parametrlarga sulfat kislotasi konsentratsiyasi 30% va meyor 110% bo'lgan sharoitda qattiq faza tarkibi va eritmaga dolomit komponentlarini ajralish darajasiga ta'siri o'rganilgan. Natijada, harorat 30-70°C va parchalanish jarayoni davomiyligi 20-90 daqiqa bo'lishi kalsiy va magniyni ajralib chiqishiga sezilarli darajada ta'sir qilmasligi bilan izohlanadi.

3. Suyuq ammiak bilan pH muhiti 9 gacha yetkazilganda magniysizlantirish darajasi 7,2% ni tashkil etishini ko'rsatdi. pH muhiti 10 gacha oshganda 88% magniy cho'kadi va pH 11-11,5 bo'lganda esa amalda 100% to'liq cho'kadi. Dolomitni sulfat kislotali parchalash eritmalaridan magniy gidroksidini ajratish jarayonlari bilan izohlanadi.

4. Ammoniyashtirish darajasining suyuq faza tarkibiga $Mg(OH)_2$ ajratguncha va ajratilgandan keyingi tarkibiga hamda hosil bo'lgan suyuq ammoniy sulfatni qo'llash uchun mos ko'rsatkichlari sifatiga ta'siri o'rganilgan.

5. Mahalliy dolomit xomashyosini sulfat kislotasi bilan parchalab brusit, gips va suyuq ammoniy sulfatli o'g'itni olish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Bunda dolomit xomashyosini sulfat kislotasi bilan parchalash jarayonlarining texnologik parametrlari o'rnatilgan va ishlab chiqarishning prensipial va material balans sxemalari ishlab chiqilgan.

6. Mahalliy dolomit xomashyosini konsentratsiyasi 30% li H_2SO_4 bilan bosqichma-bosqich parchalab olingan brusit "Navoiyazot" AJ ning markaziy laboratoriyasida sinovdan o'tkazildi va yakuniy xulosa taqdim etildi. Tahlil natijalarini taqqoslash uchun "Agromag" brusitining tarkibi va brusit standartlari bilan solishtirildi.

7. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, TDTU tomonidan taqdim etilgan brusit namunasida yog'li va smolali moddalar aniqlanmadi, ko'rsatkichlari "Agromag" brusiti tarkibiga yaqin bo'lib unda 1.39% sulfatlar mavjudligi bilan farqlanadi. Ushbu sulfatlarni brusitni qayta yuvish va quritish jarayonlarida bartaraf etish mumkin. Shuningdek "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ qayta ishlash majmuasi yaqinida joylashgan dolomitdan laboratoriya sharoitida brusit olish bo'yicha sinov natijalari olib borildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
DSc.03/29.08.2023.К/Т.66.02 ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

ТУРСУНОВ ШОХЖАХОН МУСТАФОВЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗВЛЕЧЕНИЯ БРУСИТА ИЗ
МЕСТНОГО СЫРЬЯ ДОЛОМИТА**

02.00.13 – Технология неорганических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.4.PhD/T5029

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице по адресу www.tdtu.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» по адресу www.ziynet.uz

Научный руководитель:

Ихтиярова Гулнора Акмаловна
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тураев Зокиржон
доктор технических наук, профессор

Жуманова Миясар Ортиковна
доктор технических наук, старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Навоийский государственный горно-технологический университет

Защита диссертации состоится «27» декабрь 2025 года в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета **DSc29.03.08.2023.К/Т.66.02** при Наманганском государственном техническом университете по адресу: 160115, г.Наманган, ул.Косонсай, д.7). Тел.: (69) 234-14-85; Факс: (69) 234-14-85; e-mail: info@namdtu.uz), Наманганский государственный технический университет, 6-здание, 1-этаж, ауд.303

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета за № «97», с которой можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре 160115, г.Наманган, ул.Косонсай, д.7. Тел.: (69) 234-14-85; факс: (69) 234-14-85.

Автореферат диссертации разослан «03» декабрь 2025 г.

(Реестр за № «41» от «03» декабрь 2025г.



Эргашев О.К.
Председатель научного совета
по присуждению учёной степени,
д.х.н., профессор

Маллабаев О.Т.
Ученый секретарь научного
совета по присуждению
ученой степени, д.х.н.ф, доцент

Шеркузиев Д.Ш.
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёной степени, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Рациональное использование сельскохозяйственной продукции, производимой в больших объемах во всем мире, разработка технологий получения из них широкого ассортимента продуктов, а также совершенствование новых энерго- и ресурсосберегающих технологических процессов, обеспечивающих реализацию таких задач, являются одними из наиболее актуальных проблем современности. Известно, что в соответствии с ростом численности населения мира в последние годы также неуклонно увеличиваются объемы производства сельскохозяйственной продукции. В связи с этим в различных отраслях уделяется особое внимание ускорению производственных процессов, техническому и технологическому обновлению, а также повышению конкурентоспособности выпускаемой в нашей стране продукции. В частности, особое значение приобретает поиск решений существующих проблем, направленных на разработку и внедрение упрощенных технологий получения соединений магния (гидроксида магния, оксида магния, сульфата магния и аммония, сульфата кальция, строительного гипса).

Во всем мире ведутся масштабные научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование передовых, энергосберегающих и экологически безопасных технологий переработки доломита с целью получения магниевых соединений и минеральных удобрений. В частности, процессы извлечения магния из доломита и переработка его в продукты с высокой добавленной стоимостью рассматриваются сегодня как одно из наиболее перспективных направлений химической и металлургической промышленности. В данном контексте важную роль играют магниевые соединения, прежде всего гидроксид магния (брусит), который широко применяется в качестве компонента-усилителя для полимерных материалов и сельскохозяйственных удобрений. Поэтому совершенствование методов получения гидроксида магния из доломита, глубокая переработка сырья, повышение качества конечного продукта, снижение себестоимости и внедрение данных процессов в промышленную практику имеют важное научно-практическое значение.

В настоящее время в нашей республике предпринимаются активные меры по развитию технологий переработки магнийсодержащего сырья, обеспечению отраслей магниевыми соединениями и внедрению многочисленных научно-исследовательских разработок в химическую промышленность. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы определены важные задачи, направленные на «Обеспечение устойчивости национальной экономики, продолжение промышленной политики, ориентированной на повышение доли промышленности в валовом внутреннем продукте, а также увеличение объемов производства промышленной продукции»¹. В этом контексте особую значимость приобретают научные исследования, направленные на получение

¹ Указ Президента Республики Узбекистан ПФ-60 от 28 января 2022 года «О Новой Стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы»

импортозамещающих, механически и химически устойчивых продуктов из местного сырья — доломита.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года “О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы” и ПП-4265 от 3 апреля 2019 года “О мерах по дальнейшему реформированию и повышению инвестиционной привлекательности химической промышленности”, ПП-4992 от 13 февраля 2021 года “О мерах по дальнейшему реформированию и финансовому оздоровлению предприятий химической промышленности, развитию производства химической продукции с высокой добавленной”, Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 91 от 1 марта 2022 года “Об утверждении технического регламента “О безопасности минеральных удобрений”, №753 от 15 декабря 2021 года “О мерах по созданию инновационного химического научно-производственного и образовательного кластера для химической промышленности”, а также других нормативных правовых актах, связанных с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики VII. «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы. В научно-технической литературе широко представлены исследования, посвящённые извлечению гидроксида магния и оксида магния из природного сырья, а также разработке практических основ их применения. В данном направлении научные работы проводились такими ведущими исследователями, как М.Х. Алаа, Н.П. Косупало, Ю. Дин, Т.В. Бондарчук, И.И. Смирнов, В.Т. Антонов, В.В. Шипсов, О.В. Канагин и другими.

